# “Tashabbusli byudjet” loyihasining 2025-yil 2-bosqichi boshlanishi to‘g‘risida ma’lumot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Fargona shahrida “Tashabbusli byudjet” loyihasining 2025-yil 1-mavsumi1-fevraldan 20-martga qadar uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlari shakllantirilib, ushbu jarayoda o‘tkazilib 17 ta loyiha dastur tomonidan avtomatik g’olib deb topilgan.

2025-yil 26-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 03/23-9-14063-sonli xatiga asosan “Tashabbusli budjet” loyihasining 2-mavsumi shu yilning 15-iyul kunidan boshlanishi rejalashtirilmoqda.

Bunga ko‘ra:
15-iyuldan 3-avgustga qadar – loyiha kiritish bosqichi;
4-avgustdan – 18-avgustga qadar – loyihalarni saralash bosqichi;
19-avgustdan – 21-avgustga qadar – targ‘ibot bosqichi;
22-avgustdan – 31-avgustga qadar – ovoz berish bosqichlari o‘tkaziladi.

Shu munosabat bilan Sizlarni qiynab kelayotgan mahalla infratuzilmasini yaxshilash bilan bog‘liq muammolarni ilgari surib ishtirok etishingizni so‘raymiz.